

OQ PLYONKA OSTIGA POMIDORNI EKISH SXEMALARINING RIVOJLANISHGA TA'SIRI

To'ychiyev Shuxrat Shavkatovich,

Qarshi davlat universiteti Agrokimyo va ekologiya kafedrası o'qituvchisi.

Annotasiya. Ushbu maqolada pomidorni Sulton va Toshkent tongi navlarining uch xil sxemadagi ekilgani va nihollar unib chiqishi, gullashi, novda uzunligi, yon novdalar soni, ekilgan o'simliklarning balandligi va bir tup o'simlikdagi barglar soni tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko'ra o'simliklarning o'zgarish ko'rsatkichlar qayd etildi.

Kalit so'zlar. Pomidor, ko'chat, plyonka, mulchalash, urug', sxema, nav, meva, nihol, variant, o'simlik, ildiz, ekish sxemasi, vazn.

Аннотация. В этой статье сорта томатов Султан и Ташкентский Тонг были посажены на трех разных участках и проанализированы всходы, цветение, длина стебля, количество боковых ветвей, высота посаженных растений и количество листьев на растении. По результатам исследований зафиксированы изменения показателей растений.

Ключевые слова. Помидор, рассада, пленка, мульчирование, семена, схема, сорт, плод, всхожесть, вариант, растение, корень, схема посадки, масса.

Annotation. In this article, the Sultan and Tashkent Tong varieties of tomato were planted in three different plots and the sprouting, flowering, stem length, number of lateral branches, height of planted plants and number of leaves per plant were analyzed. According to the results of the research, the change indicators of plants were recorded.

Key words: tomato, seedling, film, seed, scheme, variety, fruit, germination, variant, plant, root, weight.

Kirish. Ma'lumki, har bir davlatning barqaror rivojlanishi ko'p jihatdan mamlakat aholisining oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanganligiga bog'liq. Yurtimizda mo'l va sifatli, tannarxi arzon sabzovot, poliz va kartoshka mahsulotlari yetishtirish uchun yetarlicha sharoitlar mavjud.

Odatda pomidor, shirin qalampir, baqlajon kabi sabzavotlarni yetishtirish uchun, avvalo, ularning ko'chatlarini issiqxonalarda o'stirib, keyin ochiq maydonlarga ekiladi. Bundan tashqari pomidor urug'ini bevosita ochiq dalaga ekib yetishtirish usullarini qo'llash ham sezilarli darajada samara beradi [2].

Tuproqning ildiz joylashgan qatlami va yerning ustidagi havo qatlamining energetik rejimiga ta'sir ko'rsatish usullaridan biri tuproqni mulchalash (tuproqning yuzasini har qanday vositalar: xas-cho'p, go'ng, chirindi, kompost, poxol, yog'och qirindisi, yaproqlar, turli rang va qalinlikdagi polimer plenka va boshqalar bilan qoplash) hisoblanadi. Mulchalash uchun ishlatiladigan materiallarning xossalari turlicha bo'lgani holda, ularning o'simliklarga va atrof muhitga ko'rsatadigan ta'siri ham xilma-xildir. unib chiqqandan so'ng o'simliklar tashqariga chiqishlari uchun teshiklar o'yib chiqiladi. Plenka ostidagi tuproqqa vegetatsiya davrida ishlov berilmaydi, tuproqni shaffof plenka bilan mulchalash yuqorisamarali agrotexnik tadbir bo'lib, tuproqning suv-fizikaviy xossalari majmuaviy ta'sir ko'rsatadi va issiqlik rejimini tartibga soladi. Bu usul ildiz zonasida namlikni saqlab turishga hamda chigitlarning ertaroq va to'laqonli unib chiqishga ko'maklashadi [4].

Poliyeten plenka bilan mulchalashda tuproqning faol haroratlar yig'indisi sekin-asta baxordan yozga tomon o'sib borib, yozga kelib eng yuqori darajaga yetadi, so'ng sekin-asta pasayib boradi [1].

Hozirgi kunda tuproq unumdorligini oshirish, suv-fizik xususiyatlarini yaxshilash borasida asosiy tadbirlar (tuproqqa ishlov berish, o'g'itlash, almashlab ekish va boshqalar) dan tashqari mulchalashning har xil usul va texnologiyalari qo'llanilmoqda.

Ma'lumki, mulcha sifatida torf, somon, barg, go'ng kabi moddalar qo'llaniladi. Ularni tuproqning ustki qatlamiga ma'lum qalinlikda qo'llashda tuproq namligi zaxiralari saqlanishiga, tuproq tuzilishi va strukturasining yaxshilanishiga erishiladi. Bundan tashqari mulchalash natijasida namning bug'lanishi kamayadi, tuproqqa quyosh nurlarining tushishi ko'payadi va harorati ortadi.

Keyingi yillarda dunyoning bir qator mamlakatlarida qishloq xo'jaligida polimerlarni qo'llash yuzasidan amaliy izlanishlar olib borilmoqda. Olingan ma'lumotlarga ko'ra, ayrim sintetik smolalar (mumlar) – polielektrolitlar tuproq strukturasini yaxshilaydi, nam sig'imini oshiradi, tuproqni singdirish kompleksida tuz muvozanatini o'zgartiradi va ozuqa unsurlarini saqlab qoladi.

Tuproqning ildiz joylashgan qatlami va yerning ustidagi havo qatlamining energetik rejimiga ta'sir ko'rsatish usullaridan biri tuproqni mulchalash (tuproqning yuzasini har qanday vositalar: xas-cho'p, go'ng, chirindi, kompost, poxol, yog'och qirindisi, yaproqlar, turli rang va qalinlikdagi polimer plenka va boshqalar bilan qoplash) hisoblanadi. Mulchalash uchun ishlatiladigan materiallarning xossalari turlicha bo'lgani holda, ularning o'simliklarga va atrof muhitga ko'rsatadigan ta'siri ham xilma-xildir.

Tuproqni poliyeten plenka bilan mulchalash texnologiyasi quyidagicha: pomidor qator orasining kengligi 70 sm bo'lgan holda ekinli ikki qatorning usti kengligi 90 sm, qalinligi 70-100 mkm bo'lgan plenka bilan yopiladi. Keyingi qator oralig'i ochiq qoldiriladi. Undan keyingi ikki qatorning usti yopiladi va keyingi qator oralig'i yana ochiq qoldiriladi.

Plenkaning ikki chetidan 8-10 sm qismi tuproqqa ko'mib qo'yiladi. Plenka ostidagi tuproqqa vegetatsiya davrida ishlov berilmaydi, tuproqni shaffof plenka bilan mulchalash yuqorisamarali agrotexnik tadbir bo'lib, tuproqning suv-fizikaviy xossalari majmuaviy ta'sir ko'rsatadi va issiqlik rejimini tartibga soladi.

Poliyeten plenka bilan mulchalashda tuproqning faol haroratlar yig'indisi sekin-asta baxordan yozga tomon o'sib borib, yozga kelib eng yuqori darajaga yetadi, so'ng sekin-asta pasayib boradi.

Tadqiqot materiallari va uslubi. Tadqiqotlar “Методические указания по изучению и поддержанию мировой коллекции овощных пасленовых культур”, “Методика опытного дела в овощеводстве и бахчеводстве”, “Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilikda tajribalar o'tkazish” uslubiy qo'llanmalaridan foydalangan holda olib borildi [3].

Tajribani olib borish uchun quyidagi ekish sxemalari o'rganildi: 1. 70x30 sm. 2. 90x23,5 sm. 3. 140x30–2 har bir uyada 2 tadan o'simlik. 4. 140+70/2x20 sm 2 qatorli lentasimon.

Har bir variant 4 qator, 4 qaytariqda joylashtirildi. Egat uzunligi 10 m, ekish sxemalari yuqorida keltirilgan.

Bir variant maydoni 28 m²; 36 m² va 56 m². Tajribaning umumiy maydoni 704 m².


Tahlil va natijalar. Tajribalar Qarshi davlat universitetining tajriba dalasida 2022 yilda o'tkazildi. Tajriba maydoni Qarshi tumani, Chaman MFYda joylashgan. Bu yerning ob-havosi viloyatimizning tekislik qismida joylashgan ko'pchilik sabzavotchilik xo'jaliklari ob-havosidan kam farq qiladi.

Tajribalarimizda aniqlandiki, pomidor urug'ini ekish sxemasi nihollarning boshlang'ich (10%) va yoppasiga (75%) unib chiqishiga Sulton navida deyarli ta'sir qilmadi. Bu ko'rsatkichlar variantlar bo'yicha mos ravishda 9–10 va 16–17 kunni tashkil etdi. Toshkent tongi navida ushbu ko'rsatkich bo'yicha farq-qonuniyat saqlanib qolgani holda Sulton naviga nisbatan Toshkent tongi navi urug'i mos ravishda 1–2 va 1–3 kungacha kech unib chiqdi (1-jadval).

1-jadval.

Pomidorni Sulton va Toshkent tongi navlarining turli sxemalarida ekilganda fenologik ko'rsatkichlari.

Ekish sxemalari, sm	Nihollarning unib chiqishi,		Yoppasiga unib chiqqanidan:					
			gullaguncha, kun		meva tugish davri, kun		meva pishishi, kun	
	10%	75%	10%	75%	10%	75%	10%	75%
Sulton								
70x30 (nazorat)	9	16	49	53	56	60	98	110
90x23,5	10	17	50	54	57	61	99	112
140x30-2	10	17	50	55	58	62	100	114
140+70/2x20	10	17	51	55	59	62	101	114
o'rtacha	10	17	50	54	58	61	100	113
Toshkent tongi								
70x30 (nazorat)	10	17	45	49	54	59	96	106
90x23,5	11	18	46	50	55	60	96	107
140x30-2	11	19	46	51	56	61	97	108
140+70/2x20	11	18	47	52	57	61	97	108
o'rtacha	11	18	46	51	56	60	97	107



Pomidorni Sulton va Toshkent tongi navlarining turli sxemalarida ekilganda fenologik ko'rsatkichlari.



Nihollarning unib chiqishidan to gullaguncha 90x23,5 sm sxemada ekilgan urug'lar o'simligining 10 foizi 50, yoppasiga 54 kunda gulladi.

Urug' 140x30–2 sm sxemada ekilganda o'simliklarning 10 foiz 50, yoppasiga 55 kunda gulladi. Nazoratga nisbatan muvofiq ravishda 1–2 kun ko'p bo'ldi. Urug' 140+70/2x20 sm sxemada ekilganda o'simliklarning gullash ko'rsatkichlari nazorat variantiga nisbatan 2 kun kechikdi.

Urug' 90x23,5 sm sxemada ekilganda Sulton navining 10% meva tugishi 57 kunda, qolgan 75% o'simliklar 61 kunda meva tugdi. 140x30–2 sm sxemada ekilgan urug'lar o'simligining 10 foizi 58 kunda, yoppasiga 62 kunda meva tugdi. 140+70/2x20 sm sxemada ekilganda 10 foizi 59 kunda, yoppasiga 62 kunda meva tugdi hamda nazoratga nisbatan mos ravishda 3 kunga ko'p bo'ldi. Urug' 90x23,5 sm sxemada ekilganda 10% mevasi 99 kunda, yoppasiga 112 kunda pishdi. Har uyada 2 tadan o'simlik qoldirib 140x30–2 sm sxemada ekilganda mevalarning 10 foizi 100 kunda, yoppasiga 114 kunda pishdi.

90x23,5 va 140x30–2 sm sxemalarda ekilganda mevalarning pishishi nazoratga nisbatan mos ravishda 1–4 kun kechikdi. 140+70/2x20 sm sxemada ekilganda ham meva pishishi ko'rsatkichlari nazoratga nisbatan 3–4 kun kech sodir bo'ldi.

Ekish sxemalari bo'yicha nihollarning unib chiqishidan Toshkent tongi navining mevasi pishishigacha bo'lgan ko'rsatkichlar Sulton navinikidan 4–5 kunga farq qildi.

Xulosa. Urug' 90x23,5 sm va 140x30–2 sm sxemada ekilganda nihollar unib chiqqan kundan to o'simlik gullaguncha

10 foizi 50 kunda, yoppasiga 55 kunda gulladi hamda bu ko'rsatkichlar nazoratga nisbatan mos ravishda 1–2 kunga ko'p bo'ldi. 2 qatorli lentasimon 140+70/2x20 sm sxemada ekilgan urug'larning gullash ko'rsatkichlari nazorat variantiga nisbatan 2 kun kechikdi.

Nazoratga nisbatan 90x23,5 va 140x30–2 sxemalarda ekilganda Sulton navi mevalarining pishishi muvofiq ravishda 1–2, 140+70/2x20 sm sxemada ekilganda 3–4 kun kechikdi.

Sulton navi yoppasiga gullagan davrida 90x23,5 sm sxemada asosiy novda uzunligi 35,8 sm yoki nazoratga nisbatan 111,5%, yon novdalar soni esa 6,0 dona, nazoratga nisbatan 120,0 foizni tashkil etdi. Toshkent tongi navida 70x30 va 140+70/2x20 sm sxemalarda ekilgan o'simliklarning balandligi va yon novdalari soni kamayib bordi. O'simlikning yoppasiga gullagan davrida ekish sxemalari bilan o'simlikning bo'yi orasidagi korrelyatsion bog'liqlik Sulton ($r=0,98\pm0,14$) va Toshkent tongi navida ($r=0,94\pm0,24$) kuchli bo'ldi.

Nazorat variantida Sulton navida bir tup o'simlikdagi barglar soni 362 dona bo'lib, 90x23,5 sm va 140x30–2 sm sxemalarda ekilganda bu ko'rsatkich 3,3 va 2,2% yuqori bo'ldi. 140+70/2x20 sm sxemalarda ekilgan o'simlikning barglar soni 70x30 sm sxemada ekilgan variantga nisbatan 0,6% kam bo'ldi. Nazorat variantida Toshkent tongi navida bir tup o'simlikdagi barglar soni 375 dona bo'lib, 90x23,5 sm va 140x30–2 sm sxemalarda bu ko'rsatkich 5,3 va 1,9% yuqori bo'ldi. 140+70/2x20 sm sxemadagi variantda esa barglar soni 70x30 sm sxemada ekilgan variantga nisbatan 2,9% kam bo'ldi.

АДАБИЁТЛАР:

1. Авдеев Ю.И. Расширяем сортимент томата, баклажана и огурца. // Картофель и овощи. – М., 1990. №6. 26–27 с.
2. Азимов Б.Д. Технология выращивания томата в условиях центральной зоны Узбекистана. // Автореф. дис. ... докт. с/х. наук. – Новосибирск. Новосибирский СХИ. 1990. – 14–16 с.
3. Ганиев Ф., Низомов Р. Эффективность мульчирования безрассадных томатов условиях Центральной зоны Узбекистана. // Сборник научных трудов по овощеводству и бахчеводству. – М., 2011. – С. 272–274
4. Мухин В.Д. Предпосевная подготовка семян овощных культур как способ повышения их всхожести и урожайности посевов: //Автореф. дис. ... докт. с/х наук. –М.,1985. –30 с.
5. Авдеев Ю.И. Селекция томата на устойчивость к заразихе. // Картофель и овощи. – М., 2003. №7. 31 с.
6. Акишин Д.В. Агротехника томатов с полосатыми плодами. // Картофель и овощи. – М., 2003. №7. 29–30 с.
7. Аббосов А.М., Хакимов Р.А. Помидор. // Сабзавот ва полиз экинларини тавсия этиладиган навлари ва етиштириш технологияси бўйича тавсиянома. Тошкент. 2006. 4–8 б.
8. Аббосов А.М., Хакимов Р.А., Низомов Р.А. Сабзавот ва полиз экинларининг қайси навини эккан маъқул. // “Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги” журналі. –Т., 2010. №4 6–7 б.
9. Остоноқулов Т.Э., Эшонқулов Н., Облақулов Д. Помидор етиштириш. // Мева-сабзавотчилик ва полизчиликдан амалий машғулотлар. Тошкент. 2006. 128–129 б.

ЧЕРРИ ТИПИДАГИ ПОМИДОР НАВ ВА ДУРАГАЙЛАРИ СЕЛЕКЦИЯСИ УЧУН БОШЛАНҒИЧ МАНБА

Арамов Музаффар Хошимович, қ.х.ф.д., професссор,
Термез агротехнологиялар ва инновацион ривожланиш институти кафедра мудири,
Алиев Баҳодир Хасанович, ассистент,
Тўрақулов Жўрабек Шайдуллаевич, қ.х.ф.д.,
Сабзавот, полиз экинлари ва картошкачилик ИТИ.

Аннотация. Мақолада турли минтақалардан келтирилган 17 та черри типидagi нав намуналарини икки муддатда ҳар томонлама ўрганиш ва баҳолаш асосида селекция ишлари учун қимматли бошланғич манба ажратилганлиги тўғрисида маълумотлар келтирилган. Черри типидagi нав ва дурагайларга хос кўпгина белгиларни (мева вазни, шакли, ранги ва б.ҳ.) ўзида мужассамлаштирган F1 Медовые сливки, F1 Шоколадные пальчики, F1 Рубиновые пальчики, F1 KS 1825, F1 KS 1832 каби дурагайлар ажратилди. Ушбу дурагайлар маҳаллий шароитда черри типидagi нав ва дурагайлар яратиш учун истиқболли бошланғич манба бўлиб хизмат қилади.

Калит сўзлар: помидор, мева вазни, мева шакли, мева ранги, ҳосилдорлик, бошланғич манба, селекция.

Аннотация. В статье приведены данные о выделении ценного исходного материала для селекционной работы на основе комплексного изучения и оценки 17 сортообразцов черри томата приведенных из разных регионов. Выделены такие гибриды, как F1 Медовые сливки, F1 Шоколадные пальчики, F1 Рубиновые пальчики, F1 KS 1825, F1 KS 1832, которые воплощают в себе многие характеристики черри томатов (масса плода, форма плода, окраска плода и т.д.). Эти гибриды служат перспективным исходным материалом для создания сортов и гибридов черри томата в местных условиях.

Ключевые слова: томаты, масса плода, форма плода, окраска плода, урожайность, исходный материал, селекция.

Annotation. The article provides data on the selection of valuable source material for breeding work based on a comprehensive study and evaluation of 17 cherry tomato varieties from different regions. There are such hybrids as F1 Medovye slivki, F1 Shokoladnye palochki, F1 Rubinovye palochki, F1 KS 1825, F1 KS 1832, which embody many of the characteristics of cherry tomatoes (fruit weight, fruit shape, fruit color, etc.). These hybrids serve as promising source material for creating cherry tomato varieties and hybrids in local conditions.

Key words: tomato, fruit weight, fruit shape, fruit color, productivity, source material, selection.

Кириш. Ҳозирги вақтда помидор етиштирувчи мамлакатларда черри типидagi нав ва дурагайлар яратиш ушбу экин селекциясининг асосий йўналишларидан бири ҳисобланади. Мамлакатимизда иссиқхоналар учун черри типидagi Умид, Марварид, Янтарный навлари яратилиб давлат реестрига киритилган.

Очиқ далада етиштириш учун Ўзбекистон ўсимликлар генетик ресурслари илмий-тадқиқот институти селекциясига мансуб Фазилят, Кўркам, Рубин навлари яратилиб давлат реестрига киритилган.

Ҳозирги пайтгача черри типидagi очиқ майдонларда етиштиришга мўлжалланган помидор нав ва дурагайлари селекцияси бўйича мақсадли тадқиқотлар олиб борилмаган. Шу сабабли СПЭ ва КИТИ Сурхондарё илмий тажриба станциясида черри типидagi нав ва дурагайлар селекцияси учун бошланғич манба ажратиш мақсадида турли минтақалардан келтирилган 17 та черри типидagi нав намуналари икки муддатда ўрганилди.

Тадқиқот материаллари ва услуги. Тадқиқотлар объекти сифатида 17 та нав намуналари хизмат қилди. Назорат сифатида Фазилят нави олинди ва у ҳар ўнта нав намунасида кейин жойлаштирилди. Тадқиқотлар икки муддатда олиб борилди. Биринчи муддатда уруғлар 10 январда сепилди ва кўчатлар плёнкали қопламалар остига 20 мартда кўчириб ўтказилди. Иккинчи муддатда уруғлар 12 февралда сепилди

ва кўчатлар 10 апрелда очиқ далага ўтказилди.

Тадқиқотлар «Методические указания по изучению и поддержанию мировой коллекции овощных пасленовых культур» (томаты, перцы, баклажаны) (Л., ВИР, 1977), «Методические указания по селекции сортов и гибридов томата для открытого и защищенного грунта» (М., ВНИССОК, 1986) каби услубий кўрсатмалар асосида олиб борилиб, олинган натижаларни статистик баҳолаш дисперсион усул (Б.А. Доспехов, 1985) бўйича «Microsoft Excel» компьютер дастурида бажарилди. Ҳисоб бўлмачаси майдони 4,5 м². Бўлмача 2 қаторли ва ундаги ўсимликлар сони 20 та. Экиш схемаси 90х25 см.

Таҳлил ва натижалар. Черри типидagi нав ва дурагайларда ҳосилдорлик оддий помидор навларига нисбатан паст бўлди. F₁ Медовые сливки дурагаида энг юқори ҳосилдорлик кузатилди. Ушбу дурагай ҳосилдорлиги биринчи муддатда 40,6 т/га ни, иккинчи муддатда 37,5 т/га ни ташкил этди.

Бу қиёсий навга нисбатан мувофиқ равишда 19% ва 35% га кўп демакдир. Бошқа ўрганилган черри типидagi нав намуналари ҳосилдорлиги қиёсий навга нисбатан анча паст бўлди. Айниқса, супердетерминант гуруҳга кирувчи Наташа, Тимоша, Комнатные красные, Комнатные желтые навлари ҳосилдорлиги жуда паст бўлиб, биринчи муддатда 13,8-19,1 т/га ва иккинчи муддатда 14,5-20,0 т/га ни ташкил этди. Бу қиёсий навга нисбатан мувофиқ равишда 40-56% ва 52-72% ни ташкил этди (1-жадвал).

1-жадвал

Черри типдаги помидор нав намуналарининг ҳосилдорлиги ва ҳосил сифати, (2019-2021 й).

T/p	Нав намуналар	Экиш муддати	Ҳосилдорлик, т/га					
			Умумий	Қиёсий навга нисбатан, % ҳисобида	Эртаги	Қиёсий навга нисбатан, % ҳисобида	Товарбоп	Қиёсий навга нисбатан % ҳисобида
1	Фазилат, ст.	I	34,1	100	26,6	100	32,4	100
		II	27,8	100	19,3	100	26,4	100
2	F ₁ Медовые сливки	I	40,6	119	24,0	90	38,6	119
		II	37,5	135	25,7	133	35,6	135
3	F ₁ Шоколадные пальчики	I	33,2	97	26,1	98	31,5	97
		II	32,6	117	20,9	108	30,9	117
4	F ₁ Сладкая облепиха	I	31,5	92	22,2	83	29,9	92
		II	29,6	106	18,1	94	28,1	106
5	F ₁ Рубиновые пальчики	I	31,1	91	22,7	85	29,5	91
		II	29,8	107	23,5	122	28,3	107
6	F ₁ KS 1825	I	28,6	84	23,7	89	27,2	84
		II	22,6	81	12,9	67	21,5	81
7	Кўркам	I	28,0	82	22,4	84	26,6	82
		II	24,1	87	16,7	87	23,0	87
8	F ₁ KS 1832	I	27,7	81	22,5	85	26,3	81
		II	21,6	78	14,3	74	20,5	77
9	F ₁ KS 1897	I	24,2	71	15,8	59	23,0	71
		II	23,2	83	15,9	82	22,0	83
10	F ₁ Детские сладости	I	22,8	67	15,4	58	21,7	67
		II	26,3	95	17,0	88	25,0	95
11	Желтые сливовидные	I	22,2	65	15,3	58	21,1	65
		II	22,6	81	15,7	81	21,5	81
12	Ампельные	I	20,5	60	16,6	62	19,5	60
		II	21,0	76	15,4	80	20,0	76
13	Наташа	I	19,1	56	15,5	58	18,1	56
		II	20,0	72	15,0	78	19,2	73
14	Комнатные красные	I	15,9	47	11,7	44	15,1	47
		II	16,6	60	12,7	66	15,8	60
15	Комнатные желтые	I	15,1	44	11,5	44	14,3	44
		II	14,5	52	11,3	59	13,8	52
16	Тимоша	I	13,8	40	10,5	40	13,1	40
		II	14,2	51	10,1	52	13,5	51
17	Рубин	I	9,1	27	5,9	22	8,6	27
		II	8,6	31	6,4	33	8,2	31
	HCP ₀₅	I	2,9		2,5			
		II	2,5		2,7			
	S _x %	I	1,7		1,5			
		II	1,9		1,6			

Бундай ҳолатни ушбу нав намуналарининг ўсимликлари жуда паст бўйли (супердетерминант) ва мевалари жуда кичик бўлганлиги билан изоҳлаш мумкин. Бундай супердетерминант навлар (ўсимлик баландлиги 30 см дан паст) уйларда, балконларда, дала ҳовлиларда тувакчаларда етиштиришга тавсия этилади ва улардан номавсумий, яъни кеч куз, қиш ва эрта баҳорда ҳосил олиш мумкин.

Энг паст ҳосилдорлик Рубин навида қайд этилди ва у 8,6-9,1 т/га ни ташкил этди ва бу қиёсий навга нисбатан 27-31% демакдир.

Эртаги ҳосилдорлик бўйича фақатгина Медовые сливки, Шоколадные пальчики, Сладкая облепиха дурагайлари иккин-


чи муддатда қиёсий Фазилат навида нисбатан 8-33% юқори ҳосил берди (1-расм).

Бошқа ўрганилган нав намуналари эртаги ҳосилдорлиги паст бўлди ва қиёсий навга нисбатан биринчи муддатда 58-90% ни, иккинчи муддатда эса 58-94% ни ташкил этди. Черри типдаги нав намуналарида эртаги ҳосилнинг умумий ҳосилдаги улуши катта бўлди.

Қиёсий Фазилат навида эртаги ҳосилнинг умумий ҳосилдаги улуши биринчи муддатда 78% ни ва иккинчи муддатда 69% ни ташкил этди. Рубиновые пальчики дурагайида эса бу кўрсаткич мувофиқ равишда 73% ва 78,9% бўлди. Худди шундай ҳолат бошқа нав намуналарида ҳам кузатилди.

Икки йиллик ўртача ҳосилдорлик бошқа ўрганилган черри типидagi нав намуналари ва F₁ дурагайларда қиёсий навга нисбатан сезиларли даражада паст бўлди.

Ўрта ва баланд бўйли нав намуналарида ҳосилдорлик бироз юқори бўлганлиги жадвалда келтирилган маълумотлардан кўриниб турибди.



1-расм. Черри типидagi помидор нав намуналари-нинг ҳосилдорлиги ва ҳосил сифати, (2019-2021 й.й).

UO‘T: 632.5:631.52:635.21

KARTOSHKA HOSILDORLIGIGA EKISH SXEMASI VA MUDDATLARINING TA’SIRI

Normurodov Davlat Soyibnazarovich, professor, q.x.f.d.,

To‘raev Qobiljon Saidmurod o‘g‘li, magistrant,

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat Universiteti Agrobotexnologiyalar va oziq-ovqat xavfsizligi instituti,

Omonov Anvar Jurakulovich, q.x.f.f.d. (PhD), assistent,

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti.

Annotatsiya. Maqolada kartoshkaning sifatli urug‘chilik uchun ekish muddatlari va ekish sxemalariga o‘suv davri va hosildorligiga ta’siri maqolada bayon etilgan.

Kalit so‘zlar. Kartoshka, urug‘lik material, ekish muddati, ekish sxemasi, viruslar, hosildorlik, urug‘lik sifati.

Аннотация. В статье описано влияние вегетации и урожайности на сроки посадки и схемы посадки картофеля для получения качественных семян.

Ключевые слова. Картофель, семенной материал, сроки посадки, схема посадки, вирусы, продуктивность, качество семян

Annotation. The article describes the effect of the growing season and yield on the planting dates and planting schemes of potatoes for quality seed production.

Key words. Potatoes, seed material, planting period, planting scheme, viruses, productivity, seed quality.

Kirish. Qishloq xo‘jalik ekinlari, ayniqsa kartoshka hosildorligi muayyan tuproq iqlim sharoitini hisobga olgan holda yaratilgan navlarni to‘g‘ri tanlanishi, ularning samarali urug‘chiligini tashkil etilganligi va har bir navning biologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan samarali yetishtirish texnologiyasini qo‘llanilishiga bog‘liq.

O‘zbekistonda kartoshkani tezpishar navlari uchun urug‘chilik tizimi ishlab chiqilgan. Lekin nav assortimentining doimiy o‘zgarib turishi, ularning biologik xususiyatlarini xar xilligi bu tizimga alohida yondoshuvni, ulardan yuqori va sifatli urug‘lik va tovar hosil olishni ta‘minlovchi agrotexnologiyalarni ishlab chiqish va qo‘llashni talab etadi. Bu esa o‘z navbatida birlamchi urug‘chilik

Ҳосилнинг товарбоплиги кўпчилик нав намуналарида 94,7-95,0 % атрофида бўлиб, қиёсий навга тенг бўлди. Энг юқори товарбоп ҳосил F₁Медовые сливки дурагайида кузатилди ва у биринчи мuddатда 38,6 т/га ни ва иккинчи мuddатда 35,6 т/га ни ташкил этди. Бу қиёсий Фазилят навига нисбатан мувофиқ равишда 119 ва 135% ни ташкил этди. Ушбу дурагайда товарбоп ҳосил умумий ҳосилнинг ҳар иккала мuddатда ҳам 95% ни ташкил этди.

Хулоса. Черри типидagi нав ва дурагайларга хос кўпгина белгиларни (мева вазни, шакли, ранги ва б.х.) ўзида мужас-самлаштирган F₁Медовые сливки, F₁Шоколадные пальчики, F₁Рубиновые пальчики, F₁KS 1825, F₁KS 1832 каби дурагайлар ажратилди. Ушбу дурагайлар маҳаллий шароитда черри типидagi нав ва дурагайлар яратиш учун истиқболли бошланғич манба бўлиб хизмат қилади.

АДАБИЁТЛАР:

1. «Методические указания по изучению и поддержанию мировой коллекции овощных пасленовых культур (томаты, перцы, баклажаны). Л., ВИР, 1977. -23 с.

2. Методические указания по селекции сортов и гибридов томата для открытого и защищенного грунта. М., ВНИИССОК, 1986. -76 с.